

OLOV VA SUV GIRDOBIDAN OZODLIK MAYDONIGA CHIQA OLGAN BUYUK QAHRAMON

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20666267>

Xaitov Bahodir Tursunovich

*QQI Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik kafedrasi katta o'qituvchisi,
p.f.f.d (PhD), dotsent*

Annotatsiya

Ushbu maqolada mo'g'ul bosqinchilariga qarshi mardonavor kurash olib borgan buyuk sarkarda va davlat arbobi Jaloliddin Manguberding faoliyati qisqacha bayon etilgan. Bugungi globallashuv davri harbiy xizmatchilar oldiga qator talablarni ilgari surmoqda. Bo'lajak ofitserlar nafaqat jismonan, balki ma'naviy yetuk bo'lishi zarurligi, shuningdek, mard va jasur farzandlargina Vatanning haqiqiy posboni bo'la olishlari mumkin. Maqolada yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Jaloliddin Manguberding ibratli hayot yo'lidan o'rnak olishlari lozimligi uqtirilgan.

Kalit so'zlar

Jaloliddin Manguberdi, Xorazmshohlar davlati, mo'g'ullar bosqini, Chingizxon, Vatan, vatanparvarlik.

Bugungi kunda mintaqamiz va dunyodagi vaziyat tobora keskinlashib bormoqda. Milliy xavfsizligimiz, tinch va osoyishta hayotimizga nisbatan tahdid va xatarlar kuchaymoqda.

Shu bois hushyorlik va ogohlikni oshirish, o'zaro hamjihatlik va birdamligimizni mustahkamlash, har qanday tahdidlarga munosib javob berishga tayyor bo'lib yashash hayotning o'tkir zaruratiga aylanmoqda.

Yosh avlodning ongini salbiy ta'sirlardan himoya qilish, adashganlarni to'g'ri yo'lga qaytarish o'zini vatanparvar deb hisoblaydigan har bir O'zbekiston fuqarosi, ayniqsa yoshlarning asosiy burchi bo'lib qolishi shart [1-258].

Ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, yoshlarda vatanparvarlik va ona Vatanga sadoqat tuyg'usini yanada yuksaltirishimiz lozim.

Mamlakatimiz tarixida muhim rol o'ynagan Spitamen, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi buyuk sarkardalarning faoliyati va merosini har bir harbiy xizmatchi doimiy ravishda o'rganib borishi zarur.

Jahon tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, qalbida, yuragida ma'naviy jasorat hissi nihoyatda kuchli bo'lgan insonlar har qanday murakkab vaziyatda ham adolat va haqiqat yo'lida o'zini ayamay, el-yurt uchun, Vatan uchun qanday ibratli ishlarni amalga oshirganini ko'rish mumkin [2-159].

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda g'urur, sadoqat va vatanparvarlik tuyg'usini, jangovarlik ruhi va istalgan paytda Vatan himoyasiga tayyorlik hissini tarbiyalashda buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberding hayot yo'li ibratli namuna bo'la oladi.

Jaloliddin Manguberdi, (to'liq ismi Jaloliddin ibn Alovuddin Muhammad) (1198-1231) – Xorazmshohlar davlatining so'nggi hukmdori (1220-1231), mohir sarkarda. Anushteginiylardan. Xorazmshohlardan Muhammadshohning katta o'g'li. Onasi – Oychechak turkman kanizaklardan bo'lgan.

Jaloliddin burnida xoli (mank) bo'lgani uchun Mankburni nomi bilan atalgan. Keyinchalik bu nom talaffuzda o'zgarib "Manguberdi" nomi bilan mashhur bo'lib ketgan.

Jaloliddinning fe'l-atvori va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida Sh.Nasaviy quyidagicha ma'lumot beradi: "U bug'doymag'iz ranglik, o'rta bo'ylik, turkey qiyofalik va turkiyda gapiradigan odam edi. U sherlar orasida eng zo'r sher edi, qo'rqmas chavandoz, lashkarlar orasida eng botir edi. U yuvosh, muloyim odam edi, jahldor emasdi, haqoratomuz so'zlarni aytmasdi. U nihoyatda jiddiy edi, kulmasdi, faqat jilmayib qo'yardi, kam gapirardi. U haqgo'ylikni, adolatni ulug'lardi" [3-296].

Jaloliddin Manguberdi voyaga yetgach, otasi uni G'azna, Bomiyon, G'ur, Bust, Takinobod, Zamin Davar va Hindiston hududlarigacha bo'lgan yerlarga hokim va taxt vorisi etib tayinlagan [3-46].

Biroq Turkon xotun va qipchoq amirlarining qat'iy noroziligi sababli Qutbiddin O'zloqshoh foydasiga vorislikdan mahrum etilgan. Jaloliddin Manguberdi otasining harbiy yurishlarida ishtirok etib, o'zining jasur jangchi, iqtidorli sarkardalik qobiliyatlarini namoyish etgan.

Shoh va sarkardalar o'rtasidagi ixtiloflar, mamlakat taqdiri, xalqning ertangi kuniga bo'lgan bepisand munosabat, o'z shaxsiy manfaatlarini davlat manfaatlaridan ustun ko'rish holatining ustunligi natijasida butun mamlakat birin-ketin dushman tomonidan egallandi.

Buxoro, Samarqand, Xo'jand singari buyuk shaharlarning qo'ldan ketishi Muhammad Xorazmshohni larzaga soldi. U endi janubi g'arbiy hududlarga chekina boshladi. Oxiri Kaspiy dengizidagi Ashura orolida o'g'li Jaloliddinni taxt vorisi etib tayinlab, 1220-yilning dekabrda vafot etadi.

Bu holat aka-ukalar o'rtasida eski adovatlarni unutish, umumiy dushman oldida yagona kuch sifatida birlashishni taqozo etardi. Buni yaxshi tushungan Jaloliddin Manguberdi ukalari Oqshoh va Qutbiddin O'zloqshohlar bilan birga Gurganj mudofaasiga oshiqadi.

Lekin Gurganjdagi qipchoq amirlari Turkon xotunning akasi Xumorteginni sulton deb e'lon qilib, Jaloliddin Manguberdiga qarshi suiqaqd uyushtirmoqchi bo'ldilar. Bundan xabar topgan Jaloliddin Manguberdi Temur Malik boshchiligidagi 300 suvoriy bilan Gurganjni tark etib Xurosonga yo'l olgan.

Bu yerda unga xalaj qabilasi boshlig'i Sayfuddin Ig'roq, Balx voliysi A'zam Malik, afg'onlar sardori Muzaffar Malik, qarluqlar boshlig'i Hasan Qarluq kelib qo'shildilar. Ularning har biri ixtiyorida 30 minglik qo'shin bor edi. Jaloliddin Manguberding o'zidagi kuchlar esa 60 ming suvoriy edi. Jaloliddin Manguberdi Valiyon qal'asini qamal qilayotgan Takajuk va Malg'ur boshchiligidagi mo'g'ul qo'shiniga hujum qilib, 3 kunlik jangdan so'ng ularni tor-mor keltirgan, 1000 dan ortiq mo'g'ul askari o'ldirilgan, omon qolgan qismi Panjshir daryosidan o'tib, ko'prikn buzib tashlashgan. Bu Jaloliddin Manguberding mo'g'ullar ustidan qozongan dastlabki yirik g'alabasi edi [4-40].

Chingizxon Jaloliddin Manguberdiga qarshi Shiki Xutuxu no'yonni 45 minglik qo'shin bilan jo'natadi. G'azni yaqinidagi Parvon jangida Jaloliddin Manguberdi mo'g'ullar ustidan ajoyib g'alabani qo'lga kiritadi. Biroq jangdan so'ng Jaloliddin Manguberding lashkarboshilari o'lja ustida o'zaro janjallashib qolib, oqibatda Sayfuddin Ig'roq, A'zam Malik va Muzaffar Maliklar Jaloliddin Manguberdini tark etganlar. Jaloliddin Manguberding yonida faqat Aminalmulk o'z lashkari bilan qolgan, xolos.

Chingizxon katta qo'shin to'plab Jaloliddin Manguberdiga qarshi shaxsan o'zi otlangan. Gapdiz qal'asi yaqinida Jaloliddin Manguberdi Chingizxon qo'shinining ilg'orini tor-mor keltiradi va kuchi ozligi sababli Sind (Hind) daryosi tomon chekinadi. Chingizxon qo'shini Jaloliddin Manguberdini daryodan o'tishiga imkon bermay qurshab oladi. 1221-yil 25-noyabrda bo'lgan tengsiz jangda mag'lubiyatga uchragan Jaloliddin Manguberdi 4000 jangchisi bilan Sindning o'ng sohiliga suzib o'tib, cho'l ichkarisiga kirib ketdi (bu cho'l hozirda ham Cho'li Jaloliy deb ataladi) [4-40].

Jaloliddin Manguberdi va Chingizxon qo'shinlari o'rtasida 1221-yil 24-26-noyabr kunlari bo'lib o'tgan Sind daryosi bo'yida bo'lib o'tgan jang ham Jaloliddin Manguberdinging naqadar kuchi sarkarda ekanligidan darak beradi.

Parvon jangida mag'lub bo'lgan mo'g'ullar Chingizxon boshchiligida ulkan lashkar to'plab Jaloliddinga qarshi o'tlangan. Son jihatdan mo'g'ullar bir necha barobar ziyod bo'lgan, shu tufayli xorazmliklar Sind (Hind) daryosi tomon chekinishgan.

Jaloliddin Parvonda avval uni tark etgan Sayfuddin Ig'roq, A'zam Malik va Muzaffar Malik kabi amirlar bilan birlashib, Chingizxonga qarshi jang qilishga qaror qiladi. Ammo, o'ylangan rejaning amalga oshishiga yov imkon bermaydi. Ildam yetib kelgan Chingizxon Jaloliddinning O'rxon boshliq ug'ruqiga hujum qilib, uni yakson etadi. Dushmanning lashkari bilan Sind daryosi orasida qolgan Jaloliddinning jangga kirishdan o'zga chorasini qolmaydi. Sind daryosi bo'yidagi jang 1221-yilning 24-noyabr erta saharda boshlanadi. Jaloliddin xos askarlari bilan yovning Chingizxon joylashgan markaziga shiddatli hujum uyushtiradi va uni 2 bo'lakka ajratib yuboradi. Ammo, 10 ming kishilik bahodir laqabini olgan, saralangan mo'g'ullar pistirmasi uning yo'lini to'sadi. Bu pistirma Jaloliddinning qaynotasi Aminalmulk lashkariga hujum qildi. Ularni yengib, markazga tomon surib tashladi [3-108].

Xorazmliklarning so'l qanoti mo'g'ullarga bardosh berolmay yengiladi. Og'ir ahvolda qolgan Jaloliddin 700 ga yaqin otliq askarlari bilan mardlarcha qarshilik ko'rsatadi.

Chingizxon uni tiriklayin qo'lga olishni buyuradi. Dushman sultonni qurshovga oladi, ular o'z niyatlariga yetay deb turganda Jaloliddinning tog'avachchasi va xos amirlaridan bo'lgan Axos Malik uni xalqa ichidan olib chiqishga erishadi.

Jang vaqtida sultonning go'dak o'g'li yov qo'lga asir tushadi. Chingizxon uni qatl etishga hukm qiladi. Jangohdan chiqqan Jaloliddin qarindosh-urug'lari bilan vidolashadi va ularni Sindga g'arq qilishga ijozat beradi, so'ngra qayta hujumga tashlanadi, noiloj ahvolda qolgach, 10 gaz balanddan oti bilan daryoga sakraydi. Daryoning narigi qirg'og'iga sog'-salomat o'tib olgan sultonning bu qahramonligini ko'rgan Chingizxon Jaloliddinni ta'qib etishni man qiladi va o'z a'yonlari hamda farzandlariga qarata shunday deydi: "Otaga shunday o'g'il zarurki, u ikki girdob - olov va suv girdobidan ozodlik maydoniga chiqa oldi!" [5-184].

Jaloliddin Sinddan suzib o'tishga muvaffaq bo'lgan 4 mingga yaqin askarlari bilan birlashadi va Hindistonning shimoliy hududlari tomon yo'l oladi. Boshqa bir

manbalarda J.Manguberding jasoratidan hayratga tushgan Chingizxon o'z o'g'illariga qarab: "Ota o'g'il mana shunday bo'lishi lozim!", degan. Oradan bir necha kun o'tgach, Jaloliddin Manguberdi qo'shini soni 7 mingga yetdi. Unga Kulbars bahodir, Kabkuh va Sa'diddin Ali ash-Sharabdor kabi lashkarboshilar o'z kishilari bilan kelib qo'shildi.

Atigi o'ttiz uch yil umr ko'rgan, ammo nomi ellarda mashhur bo'lgan, Chingizxonni lol qoldirgan, o'z yurtini sevgan oxirgi Xorazmshoh Sulton Jaloliddin Manguberdi yorug' dunyodan ko'z yumdi. Uning nomi asrlar davomida avlodlar uchun jasorat va mardlik, vatanparvarlik ramzi bo'lib kelmoqda.

Sulton Jaloliddinning hayotligi davrida mo'g'ullar O'rta Sharqni bosib ololmadilar. Bu voqea ancha keyin 1256-yili ro'y berdi. Jaloliddin Manguberdi o'n bir yil davomida mo'g'ullarni nafaqat O'rta Sharqqa, balki Sharqiy Yevropaga ham qo'ymadi.

Jaloliddin Manguberdi o'zining mardligi, jasorati bilan hatto mo'g'ul lashkarboshilarini ham hayratiga sazavor bo'lgan. U bilan 1227-yil Isfaxon yaqinida jangga kirgan lashkarboshi Taylol no'yonshunday deydi: "Sen qayerda bo'lma, har qanday sharoitda qutulib keta olasan. Haqiqatan, sen o'z davringning ulug' qahramonisan, tengdoshlaringning buyuk yo'l boshchisidan" [3-169].

O'zbekiston hukumati Jaloliddin Manguberding mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashda ko'rsatgan mislsiz jasorati, vatanga va o'z xalqiga sadoqat va cheksiz muhabbatini qadrlash va uning porloq ruhini abadiylashtirish maqsadida "Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligini nishonlash haqida" qaror qabul qildi (1998-y). Qarorga ko'ra, uning yurti Xorazmda Jaloliddin Manguberdiga haykal o'rnatildi, yirik ko'cha, maydon, jamoa korxonalari va boshqalarga uning nomi qo'yildi. J.Manguberdi haqida videofilm, doston, pyesa va boshqalar yaratilgan.

2000-yil 30-avgustda "Jaloliddin Manguberdi" ordeni ta'xis etilgan [7-144].

Xulosa qilish mumkinki, bugungi O'zbekiston yosh avlod vakili To'maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Bobur singari sarkardalar, Xorazmiy, Ibn Sino, Beruniy, Farg'oniy, Buxoriy, Termiziy va boshqa ko'plab buyuk ajdodlarimizning munosib davomchilari bo'lishlarini istasak bugun ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga har qachongidan ham ko'proq ahamiyat berishimiz darkor [8-50].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev, Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi / Sh.M.Mirziyoyev. – T.: “O'zbekiston”, 2021. - 464 b.
2. Karimov, I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch / I.A.Karimov. – T.: “Ma'naviyat”, 2016. -176 b.
3. Nasaviy, Sh.M. Sulton Jaloliddin Manguberdi / Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. – T.: “O'zbekiston”. 2006. -384 b.
4. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. “O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. – T.: 2001. -237 b.
5. Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi / M.Ulug'bek. – T.: “Cho'lpon”, 1994. -184 b.
6. Rahimov, J. Vatanning sheryurak bahodiri / J.Rahimov. – T.: “O'qituvchi”. 2015. -486 b.
7. Rahimov M. O'zbekiston tarixi. / M.Rahimov, A.Zamonov. – T.: “Fan”, 2019. -544 b.
8. Xaitov, B.T. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda jadid adiblarining o'rni / B.T.Xaitov // Sharq allomalari yozma merosining ilmiy, falsafiy, ma'naviy tafakkurdagi o'rni: respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Toshkent. 23 oktabr 2020 y. / TDSHU; Mas'ul muharrir D.A.Po'latova. –T.: TDSHU, 2020. 385-388.